

SURXON VOHASIDA ANANAVIY XALQ O'YINLARI

To'lqinov Abdulla G'anisher o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Anatatsiya: *O'zbekiston eng qadim zamonlardan buyon insonlar yashab kelayotgan makon bolib qadimiy markazlardan biridir. O'zbekiston xududidan topib urganilgan Selungur, Obiraxmat, Machay, Zarautsoy kabi madaniy manzilgohlari, shuningdek Surxon vohasidagi ham qadim zamonlardan beri insonlar yashab kelgan ulkalardan sanaladi. O'zbek xalq o'yinlari ham uzoq tarixga ega bolip, ibtidoiy jamoa davrida shakllangan. Ananaviy xalq o'yinlari yosh avlodni jismoniy va manaviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli xalqimiz orsida ko'plab bahodirlar va pahlavonlar hamda botirlar yetishib chiqishida ananaviy xalqimiz o'yinlari juda ham muhim rol o'ynagan. Ananaviy xalq o'yinlari xalq ommasining ijodiy mehnati va harakatlari natijasida vujudga kelgan va ming yillar davomida va hozirgi kungacha saqlanib qolgan shaxsan uzim ham sevib o'ynagan oyinlar oq terakmi-kuk terak, chillak, oq suyak, chirkash kabi uyinlarni hozirgacha sevib o'ynaladigan o'yinlardir lekin zamonaviy dunyoda qadimiy o'yinlarga unchalik e'tibor berilmay qolgan chunki yoshlar o'rtasida hozirgi texnika dunyosida ko'plab elektron o'yinlar chiqib ketganligi sababli ananaviy o'yinlarga qiziqish juda ham kamayib ketgan ushbu maqolamda yo'qolib borayotgan O'zbek Xalq O'yinlari va Surxon Vohasi hududidagi o'yinlar haqida gap boradi azizlar.*

Kalit so'zlar: *Selungur, Obiraxmat, Machay, Zarautsoy, Karl Gross, Alis Gomm, Boysun, Sobiq Ittifoq, Sarosiya, Oltinsoy, Xidirsho, Termiz, Istiqlol mahallasi.*

Ananaviy xalq o'yinlarni to'plash hamda ilmiy tahlil qilish ota-bobolarimizning kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalash borasidagi qadimiy va ilg'or ananalarni tiklash, o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan unitilgan xalq o'yinlarni tiklash hamda xayotga tadbiq etish hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Jahon xalqlari o'yinlarini o'rganish, ularni qay tarzda bajarilganini ilmiy tahlil qilish XIX-asrdayoq boshlangan edi. Bu borada g'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar amaliy ahamiyatga ega. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib brogan Karl Gross xalq o'yinlarni to'rt asosiy guruhga ajratgan: jangovar, ishqiy, taqlidiy va ijtimoiy o'yonlar. Aliss Gomm esa xalq o'yinlarini ikkita asosiy guruhga ajratadi: dramatik va chaqqonlik va muvofaqqiyot asosida vujudga kelgan o'yinlar. Shuningdek, u o'yinlarni vertikal yani, tik va gorizantal yani, to'g'ri chiziq yo'nalishi bo'yicha kichik guruhlarga ajratadi. Sobiq Ittifoq xalqlarning o'yinlarni to'plam xolatda chop ettirgan V.N. Vsvoldiskiy-Geringross ham xalq o'yonlarini uchta guruhga ajratadi: drammatik, sport va ornamental. Shuningdek Y.R. Valikin Belarus xalq o'yinlarini S.L. Paralov turkman xalq o'yinlarni ilmiy tadqiq qilganlar.

O'zbek xalqining ananaviy o'yinlari,uning yosh avlod tarbiyasidgi o'rni va ahamiyati M.Koshg'ariy, Bayhaqiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur, S.Ayniy, G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek, U.Xoshimov, N.Safarov Tog'ay Murod kabi adiblarning asarlarida kata etibor berilgan.

Shuningdek A.Vasilov, E.M.Pexchereva, M.S.Andiriyeva, K.Shoniyozov, I.Jabborov, G.Jaxongirov, X.Ismoilov, O.Safarov, R.Yuldoshev kabi etnografik va folykyorshunos olimlar o'zlarining ilmiy maqola va monografiyalarida yoritib berganlar. Ammo Surxon vohasi aholisi ananaviy o'yinlarning maxsus tadqiqot obyekti bolmagan .Shuni takidlash joizki Surxon vohasi aholisining ananaviy o'yinlari tarixiy etnografik ishlarda to'liq o'z aksini topgan emas.

Surxon vohasi aholisi ananaviy o'yinlarini uchta katta guruhga ajratish mumkin.

1)Biror pridmet asosida o'ynaladigan o'yinlar: <<dul>>, <<chillik>>, <<arg'imchoq>><<tiqmoq>>, <<oshiq>>, <<ganosh>>, <<kurpa yopdi>>, <<oq suyak>>, <<g'irbaydi>> va hakoza.

2)Pridmetsiz o'ynaladigan o'yinlar <<boboltaka>>, <<chirkash>>, <<bekinmachoq>>, <<oq terakmi-ko'k terak>>, <<quvlashmachoq>>, <<zim-ziyo>>, va hakoza.

3)O'rtada biror shart qoyib o'ynaladigan o'yinlar bu o'yinlarga asosan qimor o'yini kiradi.

Bu ananaviy xalq o'yinlari shunisi bilan xarakterliki, ayrim o'yinlar mavsumiy o'yinlar bo'lib,qish fasli o'tib, bahor fasli kelishi bilan o'ynalsa, ayrimlari yil davomida. Voha aholisining ananaviy o'yinlari nafaqat bolalar qolaversa kattalar o'yinlari ham bolib, sanab sanog'iga,aytib adog'iga yetib bolmaydi.Bu ananaviy o'yinlar yoshlarni baquvvat, sergak, qo'rqmas, bolishiga ,ularni aqlini o'stirishga, tez fikirlashga o'rgatishga, topqir, zukko,bulishiga o'ziga xos o'rni bor.

Yoshlarni epchil, chaqqon bulishlarida muhim ahamyatga ega bolgan o'yinlardan biri bolgan <<chirkash>>o'yini bolib, bu o'yinni bolalar o'rtacha olti-sakkiztadan ikki guruhga bolib, kelishgan xolda birinchi guruh qochadi,ikkinchi guruh quvlaydi.Bunda xar bir guruhdan bitta bola quvib yetib biron joyiga oyoq tekkizishi kekrak,Kindir raqib guruhning beshta oltita bolasiga oyoq tekkizgan bolsa usha jamoa yutgan hisoblanadi agar raqib jamoaning biror o'yinchisi chaqqonlik qilib bu raqib jamoaning, besh- olti o'yinchisi ichidan birdan yugirib utsa orqa tomondagi bollar asir tushgan hisoblanadi va o'yindan chiqadi. Qolganlar o'yinni davom ettiradi.

Boysun tumanidagi xalq o'yinlari: bolalarda sezgirlik, xushyirlik, topqirlik hamda faxm-farosatni o'stirishda o'ziga xos o'ringa ega bolgan o'yinlardan yana biri <<tiqmoq>> o'yinidir.Bolalar o'yinda beshtadan o'ntagacha ikki guruhga bo'lingan.Har guruh qator bolib, o'rtada bir yulakcha joy qoldirib tiqilib o'tirishadi.Shunda birinchi guruhdan bir kishi ikki kaftini orasiga kalapushni yashirib,o'zini guruhida o'tirgan bollarning oyoqlari orasiga ikki kaftini tiqib ketaveradi.Kaftidagi kalapushni xoxlagan odamini oyog'ini tagiga yashirib o'zi yana qaytib borib joyiga yana qaytadan borib utiradi.Shunda raqib guguhdan biri qaytib o'rnidan turib ,o'zining raqib guruhidagi bir

kishiga << senda>> deb oyog'ini orasiga qo'lini solib koradi. Kalapushni topsa g'alaba qozongan boladi, agar topolmasa yutqazgan hisoblanadi, shundan so'ng kalapushni topolmagan yigitni raqib jamoa o'yinchilari uni to'rt tomonidan kutarib raqib jamoa ustidan kutarib utadi va ular oyog'ini kutarib uni turtib olishadi va uyin shu tarzda yana davom etaveradi.

Chidamlilik, chaqqonlik kabi xususiyatlarni shakillantitshda <<boboltaka>> o'yinining ham o'rni ham bor. Boboltaka o'yinida ikki guruhga bo'linib o'n-ikki kishidan bolib hammasi qura yani davra bolib utirishadi. Shunda ikki guruhdan bir kishidan chiqishadi. Birinchi chiqqan bolani <<boboltaka>>, ikkinchi chiqqan bola <<chibich>> deb atalib boboltaka davrada bir oyog'ini kutarib. Ikkinchi bolani davra aylatirib quvib yetishi kerak. Agar boboltaka oyog'ini yerga tekkizsa bag'lub bolgan hisoblanadi, yerga tekkizmay chibichga tekkizsa g'alaba qilgan hisoblanadi.

Kamon- bu o'yinni asosan erkaklar o'ynashadi. O'yin uchun bolalar tol yoki bir daraxrning ho'l navdsidan olib, uni egib ip bilan bog'lab uynladi. Bu o'yin Oltinsoy tumani Xidirsho mahallasi, Uzun tumani Istiqlol mahallasi hududlarida kop o'ynalgan hisoblanadi. Kamonga otish uchun qamishdan o'q tayyorlaydilar, kamonga xar xil shakl berib uni zexn va o'tkir did bilan bezaydilar. Bunda asosan bollar o'zoqqa otish va to'g'ri muljalga olish o'ynaydilar.

To'rt terak- o'yinda istagancha bollar va qizlar qatnashishi mumkin. Bir bolaning ko'zi bog'lanib. Qarshisida bolalar turadi va ular orasida bir metrlik masofa. Ko'zi bog'liq bola o'rtoqlari orasidan ularga tegmasdan o'tishi kerak. Qaysi bola tegib utsa, usha bola bilan joy almashadi.

Kupkari o'yinlari- qadimgi o'yinlardan ko'pchilik qismida g'oliblar moddiy va manaviy rag'batlantirib kelinadi. Shuning uchun ham bolalar o'yinlari kattalar o'yinlarning davomchisi bolib va darskchisi sifatida yashab keladi. "Kurash", "ot poygasi", "piyoda poyga", "quloq cho'zma", "eshak mindi", "kupkari", "piyoda uloq", "gashtak ko'pkari", "katta kupkari", singari o'yin turlari shular jumlasidandir.

Xozirgi vaqtda eng keng tarqalgan oyinlardan biri bu kupkari o'yinidir, Ayrimlar kupkarini faqat kupkarini faqat to'yda boladi deb oylashadi. Aslida chavanozlar boquvidagi "chiniqtirish" yoki katta kupkariga moslashtirsh "sovutish" uchun ham yengilroq, o'zaro kelishib "gashtak" kupkari chopishadi. Xar bir o'yinning o'zaro xos xususiyatlari va nozik tomonlari, yechimi bolib ular qatnashchilardan aql-farosat, o'yin madanyati, jismoniy baquvvatlikni, qurqmaslik, jasurlik va xodisalari rivojini tez faximlaydigan, o'z vaqtida harakat harakat qila olish qobilyatlarni talab qiladi. Kimda bu sifatlar yetishmasa, uni bu o'yinlar tarbiyalab boradi.

Quloq cho'zma -mahaliy yoshlarning navqironlik, mardlik va jasorat korsatish maktabi bolib kelgan. Ular davraga chiqar ekan joni og'rishiga qaramasdan , o'z maqsadi sari intiladilar. Ayni paytda u xalqimizning eng tomosha bop o'yinidir. Chunki unda o'ndan ortiq yigitlar o'z ovuldoshlari oldida o'zini nima qodirligini korsatadilar.

Shurob qishlog'ida ham bu borada boy material qo'lga kiritildi. Misol uchun "eshak mindi" o'yini tomoshasini olib koramiz. O'yin ochiq maydoda uyishtiriladi.

Ishtirokchilar besh kishidan teng ikki guruhga bulinadilar. Yerga uzunligi uzunligi ikki qadam bolgan to'g'ri chiziq chiziladi. Guruh boshqa azolari boshidgi doppelini bor kuchi bilan otadilar. Shundan so'ng otilgan doppelining qaysi biri uzoqroqqa borib tushsa usha tomon g'alaba qozongan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ananaviy o'yinlar o'zbek xalqining bir necha ming yillik ijodi bolib, ular milliy madaniyatimizning ajralmas bir qismi bolib kelmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda <<Milliy an'analar, din va madaniyatni qayta tiklash va mustahkamlash, xalqimiz manaviy merosini rivojlantirib, uni hozirgi zamon silviziatsiyasi yutuqlari bilan boyitish>> hamda xayotga tadbib etish kerak. Qadim zamonlardan beri tarkib topib kelayotgan ananaviy o'yinlarni yana ham rivojlantirish kerak deb oylayman yoki juda ham keng va yaxshi rivojlangan o'yinlarni sport turi sifatida tanlab kengroq etibor berish kerak shunda buyuk xalqimizdan qolgan qadimiy o'yinlar yuqolib ketmay yana ham rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Tursunov, T.Pardaev, N.Maxmadiyorov. Surxondaryo- etnografik makon.2012
2. Karimov I.A, Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.1996
3. Amir Temur O'gitlari.1992.
4. B.Axmedov, Tarixdan saboqlar. 1994
5. S.Tursunov,Boysun,T."Akademnashr" 2011.551 bet
6. Chag'aniyon ilmiy to'plami . T.2001
7. O.Buriyev. Murodbaxsh kunlar 1993
8. A.Asqarov. Eng qadimiy shahar.2001